

**O'RTA OSIYO XONLIKARIDA XVI ASR BOSHLARIDAN XIX ASR
IKKINCHI YARMIDA DAVLAT ISH YURITISH HUJJATLARINING
QO'LYOZMA MANBALARI TADQIQI VA DINIY HUJJATLAR TAVSIFI**

Jurayev Muzaffar

Imom Buxoriy nomidagi
Toshkent Islom instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'rta Osiyo xonliklarida munshaotnavislik, xususan, devon hujjatlari haqida fikr yuritildi. Temuriylar davridan boshlab rivojlanib borayotgan munshaotnavislikka doir xat turlari, davlat hujjatlari, diniy hujjatlar tekstologik nuqtai nazardan o'rganildi.

Kalit so'zlar: Munshaot, devon hujjatlari, diniy hujjatlar, vaqfnomalar, O'rta Osiyo xonliklari.

O'zbek xalqi azal-azaldan buyuk davlatga, buyuk madaniyatga hamda buyuk adabiyotga ega bo'lган. Bugungi beباho mustaqilligimiz millatimizning asriy orzusi bo'lган adabiyotimizni o'rganishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mustaqillik xalqimiz mulki bo'lган turli qo'lyozma va toshbosma manbalarni topish, Sharq qo'lyozmalarini o'rganish, tadqiq qilish, ilm-fanga olib kirish, nashr etish ishlarining keskin jonlanishi matnshunoslik sohasining jiddiy rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ko'plab qo'lyozma manbalar hozirgi o'zbek imlosiga transliteratsiya qilinib, shop etildi. Bu ishlar milliy ma'naviyatimiz rivojida muhim o'ringa ega.

Mamlakat tarixida sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealar jamiyat hayotining turli jabhalariga, jumladan, adabiy muhit, adabiy jarayon va madaniyat rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Temuriy hukmdorlarning Movarounnahrda olib borgan siyosati bu diyorda ilm, madaniyat, san'at va me'morchilikning beqiyos taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Temuriy hukmdorlarning ilm va ijod ahli, rassom va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash siyosati turli mamlakatlardan olim va fozillarni, donishmand va hunarmandlarni, usta-me'morlarni bu zaminga kelib muqim o'rnashishiga turtki berdi. Bu esa, o'z navbatida, yangi-yangi ilmiy markazlar, maktablarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ilm, san'at, me'morchilik, hunarmandchilik yuqori rivojlanish bosqichiga o'tdi. Samarqand yirik ilmiy markazga aylandi. Amir Temur olimlar, donishmandlar hamda shoirlarni sevar va ularni hamisha o'z himoyasi ostida tutar edi. Uning marokashlik donishmand Ibn Xaldun bilan olib

borgan ilmiy bahslari buning yorqin dalilidir.¹ Amir Temur o‘z hukmronligi davrida qorilar, voizlar, xattotlar, falakiyatshunoslar va boshqa ilm va hunar ahlini Samarqandda jamladi. Bu davrda mashhur xattot va kotiblar ham Samarqandda jam bo‘lib, o‘z maktablarini yaratdilar.²

Bu davrda yozuv va xat san’at darajasiga ko‘tarildi, kitobat hamda musiqa san’ati rivoj topdi, xattot va munshiylar jamiyatda juda yuqori obro‘ va martabaga sazovor bo‘ldilar, xat turlaridan ta’liq va nasx xatini o‘zida birlashtirgan “nasxi ta’liqi Samarqandiy” yoxud nasta’liq yozuvi turi ijod qilindi.³

Temuriylar davridan boshlab Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy xayotida turkiy (eski o‘zbek) tilining nufuzi va ahamiyati ortib bordi. XVI asrdan boshlab eski o‘zbek tilida ham ilmiy asarlar yaratila boshlandi. Bu tilda tarixiy asarlar vujudga kela boshladi. Ayniqsa, Shayboniylar hukmronligi davridan boshlab tarix ilmi bobida o‘zbek tilida yozilgan asarlarning soni tobora ortib bordi. O‘zbek tilida bitilgan tarixiy asarlar Shayboniylar davlati, Xiva va Qo‘qon xonliklari tarixiga bag‘ishlangan edi. XVI asrning boshida eski o‘zbek tilida yozilgan muhim tarixiy manbalardan biri “Tavorixi guzude”, “Nusratnama” “Tanlangan tarix” “Falsafa kitobi” xisoblanadi. Muallifi noma’lum. Shu narsa aniqki, asar Shayboniyxonning topshirig‘i bilan saroyga yaqin bo‘lgan tarixnavislardan biri tomonidan yozilgan⁴. Asar ikki mustaqil qismdan: “Tavorixi guzide” va “Nusratnama”dan iborat. Birinchi qismda O‘g‘uzxon va qadimgi turklar, Chingizzon va uning avlodlari tarixi, ikkinchi qismida esa Shayboniyxon tavalludidan to uning Movarounnaxni istilo qilishigacha Dashti Qipchoq va O‘rta Osiyoda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon qilinadi. Asarning “Nusratnama” qismi muhim qimmatga ega. Unda Shayboniyxon qo‘shinining tuzilishi, uning etnik tarkibi, shuningdek, ko‘chmanchilarning Movarounnahr viloyatlariga qilgan yovuzliklari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar bor. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, ko‘chmanchi o‘zbeklar tomonidan Farg‘ona viloyatining bosib olinishi faqat “Nusratnama”da to‘la va to‘g‘ri yoritilgan. Tarixchi olim Abdulloh Nasrulloh 1525-yilda “Zubdat al-asar” (“Solnomalar sarasi”) nomli kitob yozgan. Umumiylar tipida yozilgan bu asarning so‘nggi XI qismi original hisoblanadi. Unga XVI asrning birinchi choragida Xuroson va Movarounnahrda sodir bo‘lgan voqealar birmuncha keng yoritilgan.

XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning birinchi yarmida yashab o‘tgan atoqli shoirlardan biri Muhammad Solih hisoblanadi. Muhammad Solih Temurga yaqin bo‘lgan amirlardan biri Shohmalikning nabirasi bo‘lgan. Uning otasi ham

¹ آزند یعقوب. تاریخ تیموریان به روایت کمیریج. ج. 5. انتشارات جامی. تهران-1378. صص 96-97.

² حسین دوستوم. تاریخ جهانگشایی تیمور. نشر پونه. تهران-1374. ص 247.

³ Mahmudov U. «Temuriylar davri munshaotnavisligida matn tuzish an'anasi». Monografiya. Toshkent-2022. B-29.

⁴Hoshimov S. “Manbashunoslilik va tarixshunoslilik” fanidan o‘quv-uslubiy majmua”. Andijon-2018

Temuriylarga xizmat qilgan, lekin qaysidir gunohlari uchun u Abu Said tomonidan qatl etilgan. Shu boisdan Muhammad Solih yoshligidan ko‘p qiyinchiliklarga duchor bo‘ldi. Keyinchalik Husayn Boyqaro saroyida bir necha yil xizmat qildi, lekin iltifot ko‘rmadi. Shuning uchun ham taxminan 1499-yilda Muhammad Solih Shayboniyxon xizmatiga kiradi. Shayboniyxon uni iltifot bilan kutib olib, “malik ush-shuaro” unvonini beradi. Muhammad Solih Shayboniyxonning bir necha yurishlarida unga hamkorlik qildi. Muhammad Solih o‘zining asosiy asari bo‘lgan “Shayboniynoma” dostonida Shayboniyxonning 5-6 yillik daxshatli yurishlarini tasvirlaydi. Asarda tendensioz ruh kuchli. Muallif Shayboniyxon va uning atrofidagi kishilarni ko‘klarga ko‘tarib maqtaydi. Temuriylarni esa kamsitib, ularni haqorat qilish darajasiga etib boradi. Biroq, ba’zi nuqsonlarga qaramay, asar Shayboniyxonning yurishlarini haqqoni aks ettiruvchi jangnoma tipidagi yirik dostondir.

XV asrning oxiri va XVI asrning boshlariga doir muhim tarixiy manbalardan biri “Boburnoma” hisoblanadi. Boburning bu asari o‘zining obektivligi bilan ajralib turadi. Bobur shoh hamda fozil va olim kishi bo‘lganligi buning asosiy sababidir. XVII asrning yirik tarixchi olimi va davlat arbobi Abulg‘oziy Baxodirxondir. Murakkab taqdir sohibi Abulg‘oziy keng ma’lumotli kishi bo‘lgan. O‘zining yozishicha, u uch sohada-xarbiy, she’riyat va tarix sohasida chuqur bilim egasi bo‘lgan. Abulg‘oziydan 2 ta tarixiy asar qolgan. Bular “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” nomli asarlardir. “Shajarayi tarokima” - turkman xalqining kelib chiqishi xaqida bahs yuritadi. “Shajarayi turk” (“Shajaraiy turk va mug‘ul” deb ham ataladi”) kitobi esa muqaddima va 9 bobdan iborat. Abulg‘oziy asarning 7, 8 va 9-bobning bir qismini yozib ulgurgan, xolos. 1-6-boblar va 9-bobning davomi (1644- 1664- yillar voqealar) Anushaxonning topshirig‘i bilan Maxmud ibn Mulla Muhammad Urganjiy ismli ulamo tarafidan yozilgan. Muallif o‘z kitobini tarif etishda Chingizzon va uning avlodlari tarixiga bag‘ishlangan 18 ta asardan foydalanganligini aytib, ulardan Sharafuddin Ali Yazdiyning “Muqaddimayi Zafarnoma” va Rashiduddinning “Jome ut-tavorix” nomli asarlarini eslatib o‘tadi. Asarning original qismi xisoblangan 8 va 9 boblarini yozishda muallif o‘zi bilgan va so‘rab-surishtirib to‘plagan ma’lumotlardan keng foydalangan. Asarning original qismida XVII asrning birinchi yarmida Xiva xonligidagi siyosiy voqealar batafsil bayon qilingan.

Abulg‘oziy Xorazmda o‘ziga xos tarixnavis maktabiga asos soldi, desak bo‘ladi. XVIII va XIX asrlarda bu tarixnavislik an’anasini shoir va tarixchi olimlar Munis va Ogahiylar davom ettirdilar. Shermuhammad ibn Avazbiy Munis (1778-1829) Xivadagi madrasalarda tahsil olib. 1800-yildan boshlab xon saroyida kotib bo‘lib xizmat qilgan. U 1806- 1830-yilda Eltuzarxonning topshirig‘i bilan “Firdas ul-iqbol” - “Jannat bog‘i” asarini yoza boshladi. Lekin bu asar ayrim sabablarga ko‘ra tugallanmay qolgan.

Muhammad Rizo Erniyozbek Ogahiy ham asli xorazmlik bo‘lib, Munisning jiyani edi va tog‘asining tarbiyasini olgan edi. Munis vafotidan so‘ng u saroyni tark etib, ota kasbi miroblik bilan kun kechirgan¹. Ogahiy iste’dodli shoir, tarixnavis va tarjimon sifatida mashxurdir. U tog‘asi boshlagan “Firdas ul-iqbol”ni nihoyasiga etkazdi. Undan tashqari Ogahiy “Riyoz ud-davla” (“Davlat bog‘i”), “Zubdat uttavorix” (“Tarixlar sarasi”), “Jome ul-voqeoti sultoniy”, “Gulshan ul-davla” kabi asarlar yozgan. Ogahiy 19 ta asarni fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “Ravzat us-safo”, Sharofuddinning “Zafarnomasi”, Vosifiyning “Badoe ul-voqoe” asarlari shular jumlasidandir.

“Firdavs ul-iqbol” Xorazmning qadim zamonalardan to 1825-yilgacha bo‘lgan tarixini o‘z ichiga oladi. Asar muqaddima va besh bobdan iborat. Munis va Ogahiyarning mazkur asarining ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qarib 300 yillik tarixi (1511-1825) yaxlit, xronologik tarzda bayon etilgan. Asar turli mazmundagi faktik materiallarga nihoyatda boy. XIX asrda tarixnavislik maktabi Qo‘qonda ham vujudga keldi. O‘zbek tilida yozilib, Qo‘qon xonligining XIX asrning o‘rtalaridagi siyosiy axvolini o‘zida aks ettirgan asarlardan biri “Ansob us-salotin va tazorix ul-xavokin” kitobidir. Mazkur asarning muallifi Mirza Mushrif Toshkandiyning biografiyasiga doir ma’lumotlar ko‘p emas. Lekin uning nisbasidan xon saroyida xizmat qilganligini tahmin qilish mumkin. Asarda Farg‘onaning XV-XIX asrlar tarixi yoritilsa-da, ammo 1842-1875 yillar voqealari bayoni original ahamiyatga ega. Shunday qilib, XVI-XIX asrlar tarixi o‘zbek tilida bitilgan qator tarixiy asarlarda o‘zining aksini topgan. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tarixiy asarlarning ko‘pi ilmiy jihatdan o‘rganib chiqilib, nashr etilgan.

Xulosa qilib aytganda O‘rta Osiyo xonliklarida adabiy manbashunoslikning ajralmas qismi hisoblanmish munshaotnavislik hamda uning tarkibiga kiruvchidavlat hujjatlari, jumladan, farmoyish hujjatlari ularning turlari, yozilish uslubi, hamda uning iste’mol darajasini xonliklar ijtimoiy-siyosiy faoliyatida foydalanilgan xolatda tasniflash hamda ushbu xat turining tekstologik tahlilini amalga oshirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahmudov U. «Temuriylar davri munshaotnavisligida matn tuzish an’anasi». Monografiya. Toshkent-2022. B-29.
2. Hoshimov S. “Manbashunoslik va tarixshunoslik” fanidan o‘quv-uslubiy majmua”. Andijon-2018

¹ Hoshimov S. “Manbashunoslik va tarixshunoslik” fanidan o‘quv-uslubiy majmua”. Andijon-2018